O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR HOKIMINING QARORI

140800, Kattaqo‘rg‘on sh., Amir Temur ko’chasi, 4-uy. Tel.: (66) 4561001, 4561589, e-mail: kattaqorgon.sh@exat.uz, info@ kattakurgon.uz

2022 - yil 17 - noyabr 558-7-106-Q/22 Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Kattaqo’rg’on shahar hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo’llari, ichki xo’jalik yo’llari va markaziy ko’chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo’l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida “Ermachit” mahallasiga sun’iy yo’l notekisliklarini o’rnatish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 04 apreldagi “Avtomobil yo’llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o’lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-190-sonli va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 aprel kungi “Yo’l harakati qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 172-sonli qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O’zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O’zbekiston sharoitida avtomobil yo’llarida inson hayoti va sog’lig’ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo’l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo’nalishlari - avtomobil yo’llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo’l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo’l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Hududdagi aholining murojaati va Kattaqo’rg’on shahar ichki ishlar bo’limi yo’l harakati xavfsizligi bo’linmasining xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va maqullansin.

2. Shahar hududidagi “Ermachit” MFY Alisher Navoiy ko’chasidagi 7-sonli DMTT va odamlar ko’p to’planadigan joylarga O’zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy notekisliklar, shu bilan birgalikda, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 aprel kungi “Yo’l harakati qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 172-sonli qarori talablari asosida sun’iy yo’l notekisliklari o’rnatish tashkil etilsin.

3. Kattaqo’rg’on shahar ichki ishlar bo’limi yo’l harakati xavfsizligi bo’limi (I.Toshpo’latov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (F.Qurbonov), mahalla fuqarolar yig’ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo’l notekisliklarini yo’l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo’yicha zarur chora-tadbirlarni ko’rsin.

4. Mazkur qaror “Kattaqo’rg’on tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o’rinbosari J.Axmedov va ichki ishlar bo’limi boshlig’i G’.Islomov zimmalariga yuklatilsin.

Shahar hokimi **G. Alimova**